

Dilnoza XAYRULLAYEVA

Buxoro davlat universiteti,
boshlang'ich ta'lim metodikasi
kafedrasi o'qituvchisi
xayrullayeva66@gmail.com

ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ETNOPEDAGOGIKA NAMUNALARINI O'RGATISH METODIKASI

Ushbu maqola etnopedagogikaning didaktik imkoniyatlari haqida yozilgan. Hozirgi vaqtda o'tmishning madaniy-tarixiy merosini qayta tiklash, uning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan etnopedagogikaning boy an'analari va yosh avlodni tarbiyalash haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: etnopedagogika, dars, nutq, tovush, ta'lim, pedagogika, rivojlantirish, evristik qobiliyat, metodika, faoliyat, rivojlantirish, metodika, faoliyat, natija.

В данной статье написано о дидактических возможностях этнопедагогике. В настоящее время существуют идеи о восстановлении культурно-исторического наследия прошлого, богатых традиций этнопедагогике, являющейся ее важнейшей составляющей, и воспитании подрастающего поколения.

Ключевые слова: этнопедагогика, урок, речь, звук, образование, педагогика, развитие, эвристическая способность, методика, деятельность, развитие, методика, деятельность, результат.

This article is written about the didactic possibilities of ethnopedagogy. Currently, there are ideas about restoring the cultural-historical heritage of the past, the rich traditions of ethnopedagogy, which is its most important component, and educating the young generation.

Keywords: Ethnopedagogy, lesson, speech, sound, education, pedagogy, development, heuristic ability, methodology, activity, development, methodology, activity, result.

Kirish. Insoniyat tarixining har bir bosqichida rivojlanish yo'nalishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning metodologik birligi qonuniyati asosida belgilangan. Ushbu qonuniyat jamiyatda hukm surgan ijtimoiy-iqtisodiy qarashlar, g'oyalar asosida ijtimoiy ong shakllari bo'lgan fan, san'at, madaniyat, ishlab chiqarish va turmush tarzi rivojlanishiga omil bo'lgan. Shu tariqa tarixiy taraqqiyot davomida barkamol shaxsni tarbiyalash va voyaga yetkazish yuzasidan to'plangan boy ma'naviy meroslar xalq pedagogikasida o'z ifodasini topib borgan.

Etnopedagogika xalqimizning qahramonona o'tmishi, milliy qadriyatlarini, tarixi, urf-odatlarini, ta'lim-tarbiyadagi ilg'or g'oya va tajribalarini o'zida aks ettiradi. Ana shu bebaho merosni o'rganish va undan o'quv tarbiya jarayonida foydalanish uchun avvalo xalq ommasi to'plagan pedagogik ma'lumotlar, bilimlar, ko'nikma va malakalar qanday manbalardan olinishini bilishimiz kerak. Zotan, xalq pedagogikasi manbalarida qator o'ziga xoslik va takrorlanmaslik mavjuddir.

Etnopedagogika fanining asoschilaridan biri G.N.Volkovning quyidagi ta'rifi xalq pedagogikasi manbalari haqida yorqin tasavvur uyg'onishiga yordam beradi.

"Etnopedagogika - xalq og'zaki ijodida, urf-odatlarida, marosimlarda, bolalar o'yinlari va o'yinchoqlarida va hokazolarda saqlanib qolgan pedagogik ma'lumotlar va tarbiya tajribasining majmuasidir".

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq.

Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir.

Tahlil va natijalar. Etnopedagogika-asrlar davomida avlod-ajdodlarimizning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin tutgan. Chunonchi, xalq o'zining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlari, falsafiy axloqiy tushunchalari, hayotiy, ta'lim tarbiyaviy xulosalarini xalq pedagogikasida aks ettirgan. Etnopedagogikaning muhim yo'nalishi milliy tarbiyani amalga oshirishdir, muhim xususiyatlaridan biri esa millatga xos bo'lgan xususiyatlarining saqlanishini ta'minlash sanaladi. Shuni qayd etish kerakki, etnopedagogika-allomalarimiz tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'qituvchining insoniy fazilatlarini va kasbiy tayyorgarligi haqidagi bildirilgan fikrlar hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Insoniyat jamiyatining barcha bosqichlarida barkamol shaxsni voyaga yetkazish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan.

Xalqimiz pedagogik qarashlarining tahlili bu borada juda boy ma'naviy - ma'rifiy meros mavjudligini ko'rsatadi. Demak, bo'lg'usi pedagogik kadrlarni xalqimizning ta'lim tarbiya nazariyasi va amaliyoti bo'yicha to'plagan boy ma'naviy-ma'rifiy meros va pedagogik qarashlari bilan tanishtirish ularning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida etnopedagogika namunalarini o'rgatish metodikasining vazifalari - xalq pedagogikasining ta'lim-tarbiyaga oid boy tajribasi, tarbiya usullari, insoniy fazilatlar va qadriyatlar, xalq pedagogikasining sharqona va turkona an'analari, ta'lim-tarbiya jarayonlarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarida, diniy ta'limotlarda ifodalanish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun mohiyatini tushuntirishdan iborat. O'zbek xalqining o'tmishdagi tarixiy tajribasi, ma'naviy, madaniy, ijtimoiy hayoti, oilada farzand tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni ilmiy jihatdan to'la bilish uning kelajakdagi taraqqiyot yo'lini aniq belgilab beradi.

Etnopedagogika - etnik guruhlarning ta'lim tarbiya borasidagi tajribalari, oila, urug', avlod, millatning qadimiy qadriyatlariga ma'naviy, botiniy va zohiriy qarashlari haqidagi fandir. U xalq pedagogikasidan zamonaviy sharoitlarda foydalanish yo'llarini ko'rsatadi, etnik guruhlarning bu boradagi tajribalarini yig'adi va tatbiq etadi. Boshqacha qilib aytganda, etnopedagogikani turli xalqlar tarbiyasining tarixi va nazariyasi sifatida ko'rish mumkin. Barcha xalqlarda benazir aql, xushmuomalalik, mardlik, haqgo'ylik, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik kabi xislatlar yuqori baholanadi.

1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida etnopedagogika namunalarini o'rgatish metodikasining bosh obyekti – yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonidir. Shuning uchun xalq tarbiyaning mohiyatini qanday tushunishi, tarbiya jarayonida qanday metod va usullardan foydalanishi, tarbiyaning asosiy yo'nalishlarini qanday talqin etishi haqidagi masalalar qiziqarlidir.

Shuningdek, xalq asrlar davomida to'plangan, ilmiy-pedagogik tushunchalar bilan boyib borgan bilimlarni oilaviy tarbiyaga qanday tadbiiq etganligini ham tahlil etish zarur.

Xalq hamisha yosh avlod tarbiyasi mohiyatini to'g'ri talqin etgan. Bu yo'ldagi qiyinchiliklar va quvonchlarni, uning bebaho ish ekanligini to'g'ri anglab yetgan. Shuning uchun: "Tarbiya – bebaho boylik" deganlar. Turkmanlar: "Bola-aziz, odobi undan aziz" desalar, o'zbeklar: "Aql bahosiz, tarbiya esa chegarasiz" deb bejiz aytmagan. Chunki tarbiya jarayoni tarkibiga ko'plab yo'nalishlar kiradi. Ammo, bunda eng muhim yo'nalishni aqliy tarbiya tashkil etadi.

Shuningdek, tarbiya jarayoni g'oyat murakkab ish, u alohida e'tibor, bilim va malakani talab etadi. Xalq inson tarbiyasini ona qornidayoq boshlash zarurligini allaqachon anglab yetgan. Agar bola tarbiyasida vaqt o'tkazib qo'yilgan bo'lsa, yoki tarbiya noto'g'ri olib borilgan bo'lsa, qayta tarbiyalash zarurligi xalq pedagogikasi manbalarida alohida ta'kidlangan.

Etnopedagogika manbalarida bola tarbiyaviy sifatlarining shakllanishi bevosita ota-onaga bog'liq ekanligi alohida ta'kidlangan. Chunonchi: "Bolaning qadami oiladan boshlanadi", "Yomon o'g'il uchun ona, yomon nabira uchun buvi javobgar", "Sababi otada, natijasi bolada", kabi maqollar shular jumlasidandir. Buyuk mutafakkir Ibn Sino ham bola tarbiyasida ota-onaning

tutgan o'rnini yuqori baholab, "Tadbiri manozil" asarida: "Agar oila tarbiya metodlaridan to'g'ri foydalansa, u hayotda baxtga erishadi. Oilada bosh tarbiyachi – otadir, onaning yumshoq ko'ngilliligi bola xarakterini buzadi", - deydi. Shuning uchun yomon xislatli bolalar muhiti bola tarbiyasini buzib qo'yishi mumkinligi quyidagiga takidlanadi: "Qovun-qovundan rang oladi", "Oriyatsiz odamdan qoch!" "Yomon bilan yursang qolarsan uyatga, yaxshi bilan yursang yetarsan murodga", "Qozonga yaqinlashsang qorasi yuqor" kabilar. Shuning uchun Ibn sino pedagogik jarayonni yaxshi xulqli bolalar jamoasida olib borishni tavsiya etib: "Barcha turdagi o'quv mashg'ulotlarini jamoada olib borish zarur. Chunki bolalar jamoa muhitida do'stlashadilar, bir-birlarini hurmat qilishni o'rganadilar, yaxshi xislatlarni ham bir-birlaridan o'rgandilar"-degan edi.

Bola tarbiyasida yomon tomonga og'ish yuz berishi ham mumkinligini to'g'ri his etgan xalq, ularni qayta tarbiyalashga oid qator metodlarni tavsiya etadi: "Buyumni suv bilan, insonni o'rgatish bilan tozalashadi". Lekin, Rudakiy ta'kidlaydiki: "Agar kim olmasa hayotdan ta'lim, unga o'rgatolmas hech bir muallim". Yoki: "Tarbiyasizlikning davosi bor, axmoqlikning davosi yo'q.", "Toptalgan o'tloqda ham gul unadi" va boshqalar shular jumlasidandir. Jamiyatning ma'naviy yetukligi, ijtimoiy ong teranligi, inson kamolotini ta'minlashda etnopedagogika asarlarning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun o'zbek xalq pedagogikasining tarixiy taraqqiyot yo'lini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadim zamonlaridayoq tarixiy, badiiy, ilmiy asarlar mualliflari turli maqsadlarda folklor asarlariga murojaat etib, ularni yozib olganlar. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning (XI asr) "Devoni lug'otit turk" asari shular jumlasidandir. Mazkur manbalarda pedagogik g'oyalar targ'ib etilgan. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida etnopedagogika asarlari takomil topib, bizgacha yetib keldi. Mehnat jarayonida va ongning rivojlanishi tufayli ilk etnopedagogika asarlari namunalari badiiy jihatdan mukammallashib borgan. Dastlab, kichik hajmli naql va miflar, mehnatni yengillashtiruvchi, ruhni tetiklashtiruvchi ertak va afsonalar yaratilgan, qo'shiqlar paydo bo'lgan

Demak, o'zbek xalq pedagogikasi manbalari yozuv yuzaga kelishidan ancha oldin paydo bo'lib, yozma adabiyotning vujudga kelishiga asos bo'lgan. Qadimiy etnopedagogik manbalar bizgacha asl holda yetib kelmagan. Chunki ular ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarida o'zgarib, sayqal topib borgan. Eng qadimgi etnopedagogik manbalar miflar, jangnomalar, rivoyat, ertak, naqlar, qo'shiqlardan iborat bo'lgan. Biroq, etnopedagogika respublikamizda alohida fan sifatida endigina shakllanish arafasidadir. Uning manbalarga g'oyat boy tarixiy taraqqiyot yo'lini ilmiy pedagogik jihatdan puxta o'rganish va tizimga solish ishlari o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Ana shu ma'naviy merosning bir ko'rinishi bo'lgan xalq pedagogikasi obidalari faqat pedagogik haqiqatlar majmuasigina bo'lib qolmay, balki xalqimiz unda o'z ideyalarini hamda muhim didaktik prinsiplarini ham aks ettirgan.

Vatanga muhabbat, xalqiga sodiqlik kabi xislatlar yuqori baholanadi. Etnopedagog G.N.Volkovning ta'kidlashicha, «Har bir xalqning kuchli va o'ziga xos jihatlarni ta'kidlovchi stereotip tavsiflar hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgan emas». Nemischa batartiblik, amerikacha ishbilarmonlik, fransuzcha xushmuomalalik, inglizcha rasmiyatchilik, o'zbekcha mehmondo'stlik kabi ijobiy fazilatlar shular jumlasidandir. Xalq pedagogikasi o'z navbatida etnopedagogikaning predmetidir. Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy: «Xalqlarning o'z qadimiy madaniyatiga e'tibori va qiziqishning uyg'onishi ularning haqiqiy donoligidan dalolatdir. Demak, xalq pedagogikasi xalq ommasining turmush faoliyati jarayonida to'plangan va avloddan avlodga o'tib kelayotgan tarbiya borasidagi tajriba va bilimlari yig'indisidir.

Xulosa. Ma'lumki, qadriyatlarni yaratuvchi ham, avlodan-avlodga yetkazuvchi ham xalqning o'zi. Shu bois ham xalq pedagogikasida qadriyatlar pedagogik jihatdan keng o'rganiladi, bunda ular quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: oilaviy qadriyatlar, mehnat qadriyatlari, maishiy turmushni ifodalovchi qadriyatlar, ijtimoiy siyosiy mazmundagi qadriyatlar, madaniy-ma'rifiy qadriyatlar, badiiy estetik qadriyatlar, sog'lom turmush tarziga oid qadriyatlar, ma'naviy ruhiy qadriyatlar.

1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida etnopedagogika namunalarini o'rgatishda, oilaviy qadriyatlar, oila va oila a'zolari tomonidan qadrlanadigan o'zaro munosabatlar, kattalarga

hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi mehr-oqibat kabilarni qamrab oladi. Badiiy-estetik qadriyatlarga xalq amaliy san'ati, hunarmandchiligi, musiqa, raqs, qo'shiqchilik, tasviriy san'at, milliy bayramlar, urf-odatlar, an'analar, to'y-tomoshalar, motam marosimlari, kiyinish madaniyati va boshqalarni kiritish mumkin. Ma'naviy-ruhiy qadriyatlar mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehmuruvvat, saxovat kabi xislatlardan iborat bo'lsa, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar adolat, tinchliksevarlik, erkinlik, do'stlik, tenglik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mehnat qadriyatlariga hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik kabi sohalar kiradi, inson maishiy turmushiga oid qadriyatlar esa milliy taomlar, xalq tabobati, sharqona mehmondo'stlik kabilarni qamrab oladi.

Adabiyotlar

1. Azimova I., Mavlonova K., Azimova I., Quronov S., Shokir Tursun. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism. 1-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta'lim markazi”, 2021. – 104 b.
2. Mavlonova K., Azimova I., Quronov S., Shokir Tursun, Ro'zmetova Z. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism. 3-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “Respublika ta'lim markazi”, 2022. – 144 b.
3. Mavlonova K., Azimova I., Quronov S., Shokir Tursun va boshq. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-2-qism. 2-sinf uchun darslik. – T.: “Respublika ta'lim markazi”, 2021. – 120 b.
4. Xayrulloeva D. System of Creative Exercises and Tasks in Primary School Mother Tongue Textbooks //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
5. Xayrulloeva D. The gradual development of native language textbooks for grades 3-4 in primary school //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
6. Xayrullayeva D. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining ahamiyati //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
7. Xayrullayeva D. N. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida etnopedagogika namunalarini o'rgatish metodikasi //Scientific Impulse. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 1262-1267.
8. Khamraev, A. R. (2019). Modeling Teacher's Activity in Designing Students' Creative Activities. Eastern European Scientific Journal, (1).
9. Hamroev, A. R. (2019). Modeling activities of teachers when designing creative activities of students. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2019.